



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

F A R M O Y I S H

2025-yil « 15 » 12

№ F-50 -son

Chirchiq sh.

Universitetning barqarorlik bo'yicha xalqaro reyting natijalarini yanada yaxshilash va samaradorligini oshirishga qaratilgan tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida

1. Barqaror rivojlanish maqsadlari va barqarorlik bo'yicha Universitetda yagona boshqaruv tizimi joriy etish bo'yicha Barqaror rivojlanish maqsadlari koordinatsiya Kengashi tashkil etilsin hamda ilovaga muvofiq Kengash tarkibi tasdiqlansin.

2. Kengashning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilansin:

Barqaror rivojlanish maqsadlari bo'yicha yillik va oylik rejalarini tasdiqlash; universitet fakultetlari va bo'limlar ishidagi kamchiliklarni bartaraf etish; har oyda hisobot yuritishni tashkil etish.

3. Universitetning barcha tuzilmalari uchun Barqaror rivojlanish maqsadlari (keyingi o'rinlarda BRM) bo'yicha aniq vazifalar belgilansin:

3.1. O'quv-uslubiy boshqarmaga:

BRM bo'yicha darsliklar, uslubiy qo'llanmalar va elektron resurslar yaratish hamda bu bo'yicha ma'lumotlarni taqdim qilish;

bakalavr va magistratura o'quv rejalariga BRM modullari kiritish chora-tadbirlarini ko'rish;

BRM bo'yicha elektron kutubxona, ochiq resurslar, ma'lumotlar bazasini yaratish va buni saytga integratsiya qilish;

xorijiy talabalar sonini oshirish va BRM indikatorlariga muvofiq ma'lumotlarni tayyorlash;

4-barqaror rivojlanish maqsadi asosida barcha ta'lim yo'nalishlarida sifatli ta'lim va inklyuziv ta'limni tashkil etish.

3.2. Registrator ofisiga:

Faoliyati doirasidagi BRM bo'yicha statistik ma'lumotlarni yuritish, bitiruvchilarning to'liq mutaxassisligiga mos bandligini ta'minlash.

3.3. Ilmiy-tadqiqot, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limiga:

BRM tadqiqotlar monitoringi yuritish, bu yo'nalishdagi faoliyatni takomillashtirish chora tadbirlarini ko'rish;

ilmiy jurnallar va grantlarda BRM bo'yicha mavzulari ulushini oshirish;

BRM bo'yicha ilmiy-amaliy konferensiya va seminarlar tashkil etish.

3.4. Xalqaro hamkorlik bo'limiga:

BRM bo'yicha xalqaro hamkorlik loyihalarini kengaytirish.

3.5. O'zbekiston yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti, Iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi, Yoshlar akademiyasiga:

BRMga oid talabalar ilmiy loyihalari bo'yicha ma'lumotlar bazasini yaratish;

Yoshlar ittifoqi va Yoshlar akademiyasi bilan birgalikda BRMga oid tadbirlar tashkil etish.

3.6. Ilmiy-innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish bo'limi:

BRMning 7, 9, 11, 12 maqsadlari bo'yicha startap va innovatsiyalar ro'yxatini yuritish;

olingan daromadlarni BRM bo'yicha hisobotini yuritish.

3.7. Texnik foydalanish va xo'jalik bo'limi, O'qitishning texnik vositalari bo'limi, Bosh energetik (energiya menejeri)ga:

BRM 6, 7, 12, 13 maqsadlari bo'yicha infratuzilma faoliyatini (suv, energiya, chiqindilar, yashil hudud) takomillashtirish choralarini ko'rish va bu xisobotlarni veb saytlarga joylashtirish;

LED, sensor, filtr, oziq-ovqat chiqindisi hisobi bo'yicha tizimli va natijali faoliyat tashkil etish va asoslarni saytga joylashtirib borish.

suv sarfi va energiya iste'moli bo'yicha oylik metrologik ma'lumotlarni tizimli yuritish va o'z vaqtida taqdim qilish;

qayta ishlash va tejash siyosatida texnik hujjat tayyorlash va shu bo'yicha asosli ma'lumotlar taqdim qilish;

3.8. Reja-moliya bo'limiga:

universitet byudjeti, daromadlar va xarajatlar bo'yicha shaffoflik hisobotini yuritish;

BRM talablariga muvofiq moliyaviy monitoring yuritish.

3.9. Fakultetlar va kafedralarga

har bir BRM bo'yicha yillik faoliyat rejasini ishlab chiqish va ijrosi to'liq ta'minlash;

barcha professor-o'qituvchilar BRM bo'yicha modullarni darslarga integratsiya qilish tadbirlarini amalga oshirish va ochiq darslar tashkil qilinib sayt orqali tanishtirib borish;

3.10. Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi va Universitet boshlang'ich kasaba uyushmasiga:

BRM 1, 2, 3, 5, 10 maqsadlari bo'yicha talabalar bilan ish tizimini kuchaytirish va materiallarni saytlarda tanishtirib borish;

inklyuziv ta'lim va ijtimoiy himoya bo'yicha yillik hisobot yuritish bo'yicha tizimli chora tadbirlarni amalga oshirish va natijalarni asosli tarzda ta'minlash.

3.11. Korrupsiyaga qarshi kurashish "Komplaens-nazorat" tizimini boshqarish bo'limi, Yuriskonsult va Yuridik klinikaga:

korrupsiyaga qarshi siyosat, diskriminatsiyaga qarshi siyosat, xavfsizlik va boshqa tashkiliy siyosatlarni ishlab chiqish hamda yo'lga qo'yish;

BRM 16-maqsadi bo'yicha bo'yicha asosli faoliyatni ta'minlash va hujjatlarini tayyorlash.

3.12. Raqamli ta'lim texnologiyalari markaziga:

Faoliyati doirasidagi BRM bo'yicha statistik hamda asoslovchi ma'lumotlarni yuritish, taqdim etish.

3.13. Ta'lim sifati nazorati bo'limiga:

barqarorlik reytinglari asosida faoliyatni takomillashtirish, indikatorlarning mazmun-mohiyati bilan tanishtirish, reytinglarga o'z hissasini qo'shish bo'yicha taklif va tavsiyalar berish maqsadida Ta'lim sifati nazorati bo'limi qoshidagi Xalqaro jurnallar va reytinglar bilan ishlash guruhi tomonidan Universitetning barcha tashkiliy tuzilmalariga qisqa muddatli o'quv kursi tashkil etish;

taqdim etilgan reyting ma'lumotlarini o'rnatilgan tartibga ko'ra, universitetning reyting profillariga o'z vaqtida kiritib borish;

reyting metodologiyalari o'zgargan yoki boshqa o'zgartirishlarni talab etuvchi holatlarda "BRM koordinatsiya kengashi"ga takliflar kiritish vazifalari yuklatilsin.

4. Soha prorektorlari va fakultet dekanlariga:

BRM va barqarorlik bo'yicha hisobot hamda nazorat tizimi joriy etish;

har bir tuzilmaviy bo'lim dekabr oyining 25-sanasi qadar 2024 va 2025-yil bo'yicha "BRM hisoboti"ni ta'minlasin va Ta'lim sifati nazorati bo'limiga taqdim qilish;

universitet saytida har bir tuzilma o'z bo'limida BRM bo'yicha maxsus ma'lumotlarni joylashtirish vazifalari yuklatilsin.

5. Barcha bo'limlar uchun quyidagi qat'iy muddatlar belgilansin:

2025-yil 20-dekabrga qadar 2024 va 2025-yil amalga oshirilgan barcha BRM ishlari bo'yicha hisobot tayyorlab topshirish;

2026-yil 1-fevraliga qadar barcha bo'limlar to'liq BRM faoliyat rejasini tasdiqlash;

2026-yil yanvarga qadar QS Sustainability, sentabrga qadar Greenmetric, oktabrga qadar THE Impact Rankings uchun barcha hujjatlar yuborishga tayyor holatga keltirish.

6. Ushbu farmoyish ijrosining nazoratini o'z zimmamda qoldiraman.

Rektor

G.I.Muxamedov

